



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

N^o4(2)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich	
TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG'LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	26
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	38
Ne'matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek	
ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
Буранова Лола Вахобовна	
ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ	54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли	
ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna	
QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI	
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o'g'li	
INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	73
Abdullo Sohibov	
O'ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI	84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	
KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	91
Xamidov Javoxir Shavkat o'g'li	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	95
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
O'ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI QO'LLASHNING DOLZARB MASALALARI	100
Ochilov Farhod Malikovich	



INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI

Abdullo Sohibov

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası tayanch doktoranti

Email: abdullo.sohibov@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson kapitali va kadrlar salohiyatini boshqarishning nazariy konsepsiyalari hamda ularning zamonaviy iqtisodiyotdagi oʻrni tahlil qilingan. Tadqiqotda inson kapitali nazariyasining shakllanish bosqichlari, uning iqtisodiy oʻsish va raqobatbardoshlikni taʼminlashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, inson kapitali va kadrlar salohiyati oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik ilmiy jihatdan asoslab berilgan hamda ularni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari koʻrib chiqilgan.

Kalit soʻzlar: inson kapitali, kadrlar salohiyati, kadrlar boshqaruvi, mehnat bozori, taʼlim tizimi, iqtisodiy rivojlanish, bandlik, innovatsion rivojlanish, mehnat resurslari, strategik boshqaruv.

Abstract. Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические концепции управления человеческим капиталом и кадровым потенциалом, а также их роль в современной экономике. В исследовании проанализированы этапы формирования теории человеческого капитала и её значение в обеспечении экономического роста и конкурентоспособности. Особое внимание уделено взаимосвязи человеческого капитала и кадрового потенциала, а также современным подходам к их управлению.

Key words: человеческий капитал, кадровый потенциал, управление персоналом, рынок труда, система образования, экономическое развитие, занятость, инновационное развитие, трудовые ресурсы, стратегическое управление.

АННОТАЦИЯ. This article examines the theoretical concepts of human capital and personnel potential management and their role in the modern economy. The study analyzes the stages of development of human capital theory and its importance in ensuring economic growth and competitiveness. Particular attention is paid to the relationship between human capital and personnel potential, as well as modern approaches to their management.

Ключевые слова: human capital, personnel potential, human resource management, labor market, education system, economic development, employment, innovative development, labor resources, strategic management.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida inson resurslari har qanday milliy iqtisodiyot va korxonaning eng muhim strategik omiliga aylangan. Inson kapitali tushunchasi iqtisodiy nazariyada uzoq tarixiy rivojlanish jarayonini bosib oʻtgan boʻlib, dastlab inson hayoti va uning iqtisodiy qiymatini izohlashda ishlatilgan. Keyinchalik inson kapitali mehnat resurslarini moddiy kapital bilan bir qatorda ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida koʻrib chiqila boshladi. XX asrning oʻrtalariga kelib, inson kapitali iqtisodiy oʻsishning faol, ishlab chiqaruvchi elementi sifatida eʼtirof etildi.

Inson kapitali va kadrlar salohiyati oʻrtasidagi bogʻliqlik bugungi kunda iqtisodiy va boshqaruv nazariyalarida markaziy oʻrin egallaydi. Inson kapitali shaxsning potensial imkoniyatlarini ifodalasa, kadrlar salohiyati bu imkoniyatlarning amaliy namoyishi – ishlab chiqarish va boshqaruv samaradorligi bilan oʻlchanadigan koʻrsatkichdir. Shu bois, korxonalar va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, innovatsion salohiyati va barqaror rivojlanishi inson kapitalini rivojlantirish va boshqarishning samarali tizimiga bevosita bogʻliq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanish tarixini oʻrganish shuni koʻrsatadiki, ayrim iqtisodiy adabiyotlar va tarixiy manbalarda inson kapitali konsepsiyasi XVII asrda paydo boʻlganligi keltiriladi. Inson kapitali birinchilardan boʻlib 1676-yilda Vilyam Petti[1] tomonidan urushda qurollarni yoʻqotishni inson hayotini yoʻqotish bilan taqqoslash asosida qoʻllanilgan. Inson kapitali tushunchasi iqtisodiy tafakkur tarixida uzoq evolyutsiyani bosib oʻtgan. Dastlab bu atama iqtisodiy nazariyaga XIX asrning ikkinchi yarmida kirib kelgan boʻlib, u mehnat resurslarini moddiy kapital bilan bir qatorda ishlab chiqarishning muhim omili sifatida koʻrib chiqishga yoʻl ochdi. Ammo bu tushuncha ilmiy muomalaga toʻliq kiritilishi va iqtisodiy siyosatda amaliy ahamiyat



kasb etishi XX asrning o'rtalariga, ya'ni neoklassik iqtisodiy nazariyaning rivojlanish davriga to'g'ri keladi. Shu davrda iqtisodchilar jamiyatning o'sish sur'atlarini faqat tabiiy resurslar yoki texnologik taraqqiyot bilan izohlab bo'lmagligini anglay boshladilar. Inson kapitali nazariyasi dastlab XX asrning 50–60-yillarida Chikago maktabi olimlari[2] tomonidan asos solingani holda, inson kapitalining nazariy asoslari Shults (1961), Bekker (1962), Bouen (1977), Blaug (1976), Mincer (1958), Polachek va Mincer (1974) ishlarida shakllantirildi va yanada rivojlantirildi. Shuningdek, inson kapitalining iqtisodiy o'sish sifatiga ta'siri bo'yicha tadqiqot olib borgan g'arb iqtisodchi olimlariga[3] Shumpeter (2007), Keynes (1993), Xarrod (1959), Agiyon (2004) va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Mazkur yo'nalishdagi izlanishlarda inson kapitalining iqtisodiy o'sish sifatiga ta'siri zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Innovatsion faoliyat kengayishi bilan yuzaga keladigan samaradorlik o'sishi ham alohida e'tiborga olinadi. Shu jihatdan, endogen iqtisodiy o'sish konsepsiyalarini o'zida jamlagan Agiyonning 2004-yildagi ishlari ushbu masalani yoritishda muhim nazariy asoslardan biri sifatida qaraladi.

T. Shuls va G. Bekkerlar[4] "inson kapitali" tushunchasini insonning qobiliyatini, uning iste'dodini, bilimini, egallagan malakasini, tug'ma qobiliyatini iqtisodiy baholash sifatida ta'riflashgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim, sog'liqni saqlash va kasbiy tayyorgarlikka yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat alohida shaxs daromadini, balki butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ham oshiradi. Inson kapitaliga qaratilgan sarmoyalar mehnat unumdorligini ko'paytirib, innovatsion rivojlanish uchun zarur intellektual muhitni shakllantiradi. Bekkerning[5] inson kapitali tushunchasi iqtisodiy nazariyalarda uzoq tarixiy rivojlanish jarayonini bosib o'tgan. Dastlab mehnat omili sifatida qaralgan bo'lsa, keyinchalik u iqtisodiy o'sishning strategik resursi sifatida talqin etila boshlandi. Inson kapitalini boshqarish nazariyalari evolyutsiyasi iqtisodiy tafakkurning turli bosqichlarida shakllangan bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti, mehnat bozorining o'zgarishi, ishlab chiqarishning texnologik yangilanishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi bilan chambarchas bog'liqdir. XX asr o'rtalaridan boshlab inson kapitali iqtisodiyotning eng muhim ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida e'tirof etila boshlandi. Mahalliy iqtisodchi olim O. Aripov[6] "inson kapitali – bu iqtisodiy rivojlanish, jamiyat va oila taraqqiyotining intensiv ishlab chiqaruvchi omili, shu jumladan ishchi kuchining o'qimishli qismi, bilimlar, intellektual va boshqaruv ishlari vositalari, yashash joylari va ish faoliyati bo'lib, samarali va oqilona ishlashini ta'minlaydi. Inson kapitali tabiiy resurslar yoki to'plangan boylikdan ko'ra muhimroq bo'lgan eng qimmatli resursdir", deya ta'kidlagan. Neoklassik inson kapitali nazariyasining asoschilari Chikago universiteti professorlari Teodor Shults[7] va Gari Bekker[8] bo'lib, Shults inson kapitali g'oyasini ilgari surdi va Bekker bu g'oyani inson kapitaliga investitsiyalar samaradorligini asoslash hamda inson xatti-harakatlariga iqtisodiy yondashuvni shakllantirish orqali rivojlantirdi. Ushbu nazariyaga ko'ra, insonning bilim va ko'nikmalariga yo'naltirilgan xarajatlar oddiy iste'mol emas, balki kelajakda daromad keltiruvchi investitsiya sifatida baholanadi. Ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, sog'liqni saqlash va malaka oshirish kabi omillar mehnat unumdorligini oshiradi hamda shaxsning iqtisodiy faoliyatdagi samaradorligini kuchaytiradi. Bunday yondashuv mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash, daromadlar farqini izohlash va iqtisodiy o'sish manbalarini aniqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Inson kapitaliga investitsiya kiritish uzoq muddatda ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, innovatsion faoliyatni kuchaytirish va ijtimoiy farovonlikni oshirish bilan bog'lanadi. Fan-texnika taraqqiyotining jadal rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning inqilobiy o'zgarishlari bilan bog'liq globallashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi insoniyat jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu jarayonlar ishlab chiqarish usullarini modernizatsiya qilish, mehnat bozori mexanizmlarini yangilash hamda boshqaruv tizimlarini transformatsiya qilishga olib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Pitaikina[9] ta'kidlaganidek, zamonaviy iqtisodiy makonda bilim, axborot va innovatsion texnologiyalar asosiy ishlab chiqarish omiliga aylanib, inson kapitalining strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda. Natijada tashkilotlar va davlatlar raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida inson resurslarini rivojlantirish, raqamli ko'nikmalarni shakllantirish va innovatsion salohiyatni kuchaytirishga ustuvor e'tibor qaratmoqda.

Inson kapitalini yaratish va rivojlantirishning muhimlik darajasini ta'lim va yangi g'oya ishlab chiqarish omiliga bog'lagan holda A. Marshall[10] quyidagilarni yozib qoldirgan: "Ta'lim nom-nishonsiz o'lib ketishi mumkin bo'lgan ko'plar uchun o'zlarining salohiyatlarini namoyon qilish imkonini beradi", "Sanoatda bitta ixtirodan foydalanishdan olingan iqtisodiy foyda butun shaharda ta'limga xarajatlarni qoplash uchun yetarli, zero Bessemerning asosiy ixtirosi kabi yangi g'oya ishlab chiqarish quvvatlarini yuz ming odam mehnati hisobiga yaratiladigan darajada oshirishni ta'minlaydi." Bu qarash ta'limning nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki iqtisodiy taraqqiyot uchun ham hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadi. Ta'lim orqali inson o'z salohiyatini yuzaga chiqaradi, yangi bilim va ko'nikmalarni egallab, ishlab chiqarish jarayonlarida yuqori samaradorlikka erishadi. Innovatsiyalarning harakatlantiruvchi kuchi, birinchi navbatda, raqobat hisoblanadi. Yudina[11] ta'kidlaganidek, raqobat muhiti kuchaygan sari xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z faoliyatini modernizatsiya qilishga, yangi texnologiyalarni joriy etishga va boshqaruv tizimini takomillashtirishga majbur bo'ladi. Raqobatbardoshlikni oshirish jarayonida ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol bosqichlarida qo'llaniladigan zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalar, shuningdek, innovatsion yechimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu omillar iqtisodiy tizimning transformatsiyasini ta'minlovchi zaruriy shartlardan biri sifatida namoyon



bo'ldi va inson kapitalining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Inson kapitalining rivojlanish darajasi bevosita innovatsion muhit bilan bog'liq. Innovatsiyalarni yaratish va joriy etish jarayonida inson kapitali asosiy ishlab chiqarish omiliga aylanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot inson kapitali va kadrlar salohiyatini boshqarishning nazariy konsepsiyalarini tizimli va ilmiy yondashuv asosida o'rganishga yo'naltirilgan. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarni o'z ichiga oladi:

Nazariy tahlil. Tadqiqot jarayonida inson kapitali va kadrlar salohiyati bo'yicha klassik va zamonaviy iqtisodiy adabiyotlar chuqur tahlil qilindi. Shults, Bekker, Mincer, Agiyon kabi iqtisodchi olimlarning ishlari tadqiqotning nazariy poydevorini tashkil etdi. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish va kadrlar boshqaruvi bilan bog'liq zamonaviy yondashuvlar ham tahlil qilindi.


Sistematik yondashuv. Tadqiqot inson kapitali va kadrlar salohiyatining tarkibiy elementlari, shuningdek, ularni shakllantiruvchi tashqi omillarni tizimli tarzda aniqladi. Tashqi omillar blok-sxemada vizual tarzda ko'rsatilib, ular ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, mehnat bozori, innovatsion infratuzilma va ijtimoiy muhit kabi kategoriyalarga ajratildi.

Analitik yondashuv. Tadqiqot inson kapitali va kadrlar salohiyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga yo'naltirilgan. U ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion faoliyat va iqtisodiy o'sish bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qiladi. Shu orqali tashkilot va milliy darajada strategik qarorlar qabul qilishga asos yaratildi.

Vizual yondashuv. Tadqiqotda blok-sxema (Tashqi omillar → Inson kapitali → Kadrlar salohiyati → Iqtisodiy samaradorlik) orqali nazariy konsepsiyalarni tasvirlash ishlatilgan. Bu metod tadqiqotning tizimli va amaliy qismiga ko'maklashadi, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida inson kapitali va kadrlar salohiyatining o'zaro bog'liqligi, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri hamda tashqi omillar bilan o'zaro aloqasi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Mazkur tahlil jarayonida nazariy qarashlar va amaliy yondashuvlar uyg'unligi asosida inson kapitalining shakllanishi, rivojlanish mexanizmlari hamda kadrlar salohiyatiga aylanish jarayonlari chuqur o'rganiladi (1-rasm).



1-rasm. Inson kapitali va kadrlar salohiyatiga ta'sir etuvchi tashqi omillar tizimi



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki:

– Inson kapitali va kadrlar salohiyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlik – inson kapitalining tarkibiy elementlari (ta'lim, kasbiy malaka, sog'liq, motivatsiya, ijtimoiy muhit) kadrlar salohiyatini shakllantiradi va uni ishlab chiqarish samaradorligiga aylantiradi. Shu bilan birga, kadrlar salohiyati nafaqat individual daromadni oshirish, balki korxonaga va milliy iqtisodiyot darajasida innovatsion salohiyatni kuchaytiradi.

– Tashqi omillar rolini aniqlash – tadqiqotda tashqi omillar markaziy rol o'ynaydi. Ta'lim tizimi sifati, kasbiy tayyorgarlik dasturlari, sog'liqni saqlashning samaradorligi, mehnat bozorida raqobatbardoshlik va innovatsion infratuzilma inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishda bevosita ta'sir qiladi. Ijtimoiy muhit va tashkilot madaniyati xodimlarning motivatsiyasi, ijodiy salohiyati va bilim almashish imkoniyatlarini belgilaydi.

– Innovatsion iqtisodiyot va samaradorlik – tadqiqot shuni ko'rsatadiki, innovatsion iqtisodiyotda kadrlar salohiyati strategik resurs sifatida namoyon bo'ladi. Bilim, kreativ fikrlash va yangi texnologiyalarni qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshadi.

– Blok-sxema tahlili – diagrammada ko'rsatilganidek, tashqi omillar bevosita inson kapitaliga ta'sir qiladi, inson kapitali esa kadrlar salohiyatini shakllantiradi, natijada iqtisodiy samaradorlik va innovatsion rivojlanish ta'minlanadi. Bu ilmiy model korxonaga va milliy iqtisodiyot darajasida strategik qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Natija:

Inson kapitali va kadrlar salohiyati korxonaga va milliy iqtisodiyotning strategik resurslari sifatida aniqlanadi.

Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlariga kiritilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltiradi.

Kadrlar salohiyati amaliy ko'rsatkich sifatida ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsion salohiyatni oshirishga xizmat qiladi.

Tashqi omillarni samarali boshqarish orqali inson kapitalini rivojlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin.

Zamonaviy boshqaruv tizimlarida inson kapitalini rivojlantirish strategik ustuvor yo'nalish sifatida qabul qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inson kapitali zamonaviy iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish va milliy raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy strategik omillardan biri hisoblanadi. Inson kapitali nafaqat shaxsning bilim, ko'nikma va malakalar majmui, balki uning sog'ligi, motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi va ijodiy salohiyatini ham o'z ichiga oladi. Kadrlar salohiyati esa inson kapitalining amaliy ifodasi sifatida tashkilot va milliy iqtisodiyot darajasida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan nazariy model va chizma asosida aniqlanishicha, tashqi omillar – ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash sohasi, mehnat bozori mexanizmlari, innovatsion infratuzilma hamda ijtimoiy muhit – inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mazkur omillar o'zaro uyg'un holda faoliyat yuritgandagina inson kapitali yuqori sifat darajasiga ko'tariladi va kadrlar salohiyati orqali iqtisodiy samaradorlikka aylantiriladi. Shu bois inson kapitalini rivojlantirish jarayoni tizimli, uzluksiz va strategik yondashuvni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyotning muhim kafolati hisoblanadi. Ayniqsa, bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining sifati ishlab chiqarish hajmidan ko'ra ko'proq ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kadrlar salohiyatini samarali boshqarish tashkilotlar va davlat miqyosida innovatsion rivojlanishning asosiy omiliga aylanadi. Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan dual ta'lim tizimini kengaytirish zarur. Ikkinchidan, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish orqali aholining sog'lom va mehnatga layoqatli qatlamini kengaytirish inson kapitalining sifat ko'rsatkichlarini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Петти В. Экономические и статистические работы / Петти В. Том 1. – М.: Соцэкгиз, 1940. – С. 156.
2. Schultz Theadore. (1961). Investment in Human Capital // The American Economic Review, Vol. 51(1), pp. 1–17.
3. Becker, Gary. (1962). Investment in Human Capital: A Theoretical Analysis // Journal of Political Economy, Vol. 70 (5, Part 2, Supplement), pp. 9–49.
4. Bowen, H.R. (1977). Investment in Learning. – San Francisco: Jossey-Bass. – P. 507.
5. Blaug M. (1976). The empirical status of human capital theory: A slightly jaundiced survey // Journal of Economic Literature, September 1, 14(3), pp. 827–855.
6. Blaug M. (1976). The empirical status of human capital theory: A slightly jaundiced survey // Journal of Economic Literature, September 1, 14(3), pp. 827–855.



7. Jacob Mincer. (1958). Investment in Human Capital and Personal Income Distribution // Journal of Political Economy, 66, August, pp. 281–302.
8. Mincer J., Polachek S. (1974). Family Investments in Human Capital: Earnings of Women // Journal of Political Economy, Vol. 82, No. 2, Part II, March–April. <http://www.nber.org>
9. Шумпетер Й.А. (2007). Теория экономического развития. – М.
10. Кейнс Ж.М. (1993). Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Экономика.
11. Харрод Р.К. (1959). Теория экономической динамики: Пер. с англ. – М.: Изд-во иностранной литературы.
12. Aghion P., Meghir C. (2004). Growth, Distance to Frontier and Consumption of Human Capital. – The Institute for Fiscal Studies, WP04/31, pp. 1–50.
13. Schultz T. (1968). Human Capital // International Encyclopedia of the Social Sciences. – N.Y., Vol. 6.
14. Becker G. (1964). Human Capital. – Columbia University Press.
15. Becker G.S. (1964). Human Capital. – University of Chicago Press.
16. Aripov O.A. (2023). Inson kapitalini rivojlanishiga doir mulohazalar // “Interpretation and Researches” International Scientific Journal, Vol. 1, Issue 3.
17. Schultz T.W. (1963). The Economic Value of Education. – New York: Columbia University Press.
18. Капелюшников Р.И. (1993). Экономический подход Гэри Беккера к человеческому поведению // США: экономика, политика, идеология. – № 11. – С. 17.
19. Pitaikina I.A., Vlazneva S.A. (2018). Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini shakllantirishning yangi sifati // Inf. J. Ekon. Qonun masalalari, 122, 39–44-b.
20. Marshall A. (1879). The Pure Theory of Foreign Trade and the Pure Theory of Domestic Values. – L.
21. Маршалл А. (1993). Принципы экономической науки. – М.: Прогресс. – С. 294.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>